UDK: 297.262.3:297.262.3 **DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss4/a97**

IBN ARABIYNING TASAVVUFIY-IRFONIY QARASHLARIDA “VAHDAT UL-VUJUD” KONSEPSIYASI TAHLILI

АНАЛИЗ ПОНЯТИЯ «ВАХДАТ УЛЬ-ВУДЖУД» В МИСТИКО-МИСТИЧЕСКИХ ВОЗЗРЕНИЯХ ИБН АРАБИ

ANALYSIS OF CONCEPT "WAHDAT UL-WUDJUD" AND MYSTICAL OLD VOZZRENIYAX IBN ARABI

Mirzayev Axrorjon Azamovich[1]

[1]Mirzayev Axrorjon Azamovich – Farg‘ona politexnika instituti "Ijtimoiy fanlar va sport" kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu ilmiy maqolada Abu Bakr Muhammad Ibn Arabiyning tassavufiy qarashlarida “vaxdat ul-vujud” konsepsiyasi vujudga kelishi, “vaxdat ul-vujud” konsepsiyasi vujudga kelishi ta’sir ko‘rsatgan ta’limotlar, ushbu konsepsiyaga nisbatan o‘rta asr diniy allomalarining munosabatlari to‘g‘risida fikr yuritilgan.

Аннотация

В данной научной статье рассмотрены возникновение понятия «Вахдат уль-Вуджуд» в суфийских воззрениях Абу Бакра Мухаммада ибн Араби, учения, повлиявшее на возникновение понятия «Вахдат уль-Вуджуд» и взгляды средневековых религиозных деятелей.

Abstract

This scientific article depicts the emergence of the concept of "Wahdat ul-Wujud" in the Sufi views of Abu Bakr Muhammad Ibn Arabi, the teachings that influenced the emergence of the concept of "Wahdat ul-Wujud" and the attitudes of medieval religious scholars in relation to this concept.

Kalit so‘zlar: islom *dini, yunon falsafasi, Mutlaq rux, Neplatonizm, Ibn Xaldun, Ibn Taymiya*

Ключевые слова: *исламская религия, греческая философия, Абсолютный Дух, неоплатонизм, Ибн Халдун, Ибн Таймия.*

Key words: *Islamic religion, Greek philosophy, Absolute Spirit, Neoplatonism, Ibn Khaldun, Ibn Taymiyyah.*

KIRISH

Jahonda tasavvuf ta’limotining tarixiy bosqichlari, uning buyuk namoyondalarining diniy-tasavvufiy, tasavvufiy-falsafiy qarashlarini o‘rganish dolzarblik kasb etmoqda. Bu orqali tasavvufning asl mohiyati bo‘lgan - ijtimoiy adolat, do‘stlik va ilohiy muhabbat, sokin musaffolikka e’tibor qaratish asosida insonning botinidagi yomonlik, zo‘ravonlik, tubanlik, urushlar, diniy ekstremizm, fanatizmga qarshi diniy-islomiy barqarorlik, ijtimoiy birodarlik, bag‘rikenglik, hamdo‘stlik, mehr-muhabbat g‘oyalarini targ‘ib etish zarurati ortib bormoqda.

Islom dini - avvalo, tinchlik va do‘stlik, ahillik va birdamlik, bilim va ma’rifat dinidir. Mana shu oliy haqiqatni hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz lozim [1].

ADABIYOTLAR TAXLILI VA METODOLOGIYA

Islom dini islom olamida kuchli yagona mafkuraga aylangandan so‘ng Haq taoloning o‘z xusnu, jamoli qudrat va sifatlarni namoyon etish istagini ifodalovchi “vahdat ul-vujud” kuchli fikriy ta’limot sifatida paydo bo‘ldi. Vahdat ul-vujud lo‘g‘aviy ma’nosi arabcha-jismoniy borliq - Sharq mamlakatlari, Markaziy Osiyo, Hindiston xalqlari falsafiy qarashlarida keng tarqalgan oqim. Vahdat ul-vujud vujudning birligi ma’nosini anglatib, Allohdan boshqa borliq yo‘qligini bilish shuuriga sohib bo‘lishdir. Vahdati vujud maslagiga ko‘ra, hamma narsa toq vujud bo‘lmish Allohning turli-tuman tajalliylari, zuhurlari, taxayyullari va ko‘rinishlarindan boshqa narsa emasdir. Vahdat ul- vujud mohiyati zavq ila kashf etilib, yashash yo‘li bilan bilinadi, mushohada etiladi.

Vahdat ul vujud ta’limotiga antik davr falsafasida mavjud bo‘lgan neoplatonizmning emanatsion ta’limoti ham sezilarli ta’sir o‘tkazgan. Chunki neoplatonizmning o‘zi falsafiy ta’limot sifatida milodiy III-IV asrlarda vujudga kelgan va Sharq falsafiy ta’limotini Yunon falsafasi bilan biriktirishga intilganlar. Aslida esa neoplatonizm Platon, Aristotel, pifagorchilar Misr dini va hinduizm falsafasining sintezi natijasida vujudga kelgan edi. Ular asos solgan Rim maktabining namayondasi Porfiriy 270 yilda o‘zining “Misteriya haqida” asarida neoplatonizmni Xudo olamning

o‘zida mavjudligi to‘g‘risidagi g‘oyalar bilan boyitdi. Neplatonizmning asosiy falsafiy mazmuni borliq iyerarxiyasining eng yuqori nuqtasi bo‘lgan Yaxlitlik g‘oyasi muhim rol o‘ynagan. Bu g‘oyaning asosida Platonning “Yaxlitlik-Aql-Jon” triadasi yotadi. Yaxlitlik barcha mohiyatlarning mohiyati bo‘lib, aqlni vujudga keltiradi. Aql(nus) jonni (petoxe vujudga keltiradi). Jon ikki ko‘rinishda mavjud: quyi jon va oliy jon. Quyi jon marteriyaga intilib yashaydi. Oliy jon esa xudolar tomonidan yaratiladi. Aql va va jonning birgalikdagi sa’ay –harakati natijasida oliy jon materiya iskanjasidan xalos bo‘ladi. Umuman olganda vahdat ul vujud ta’limoti ko‘pgina Sharq shoir va mutafakkirlari ijodi uchun ma’naviy ozuqa bo‘lib xizmat qilgan. Ayniqsa, insonga bo‘lgan munosabat Ollohga bo‘lgan munosabat darajasiga ko‘tarildi. Aynan mana shu ta’limot o‘zining ijtimoiy mohiyati bilan eng ilg‘or shoir va mutafakkirlar uchun insonni, moddiy olamni, undagi real hayotni qadrlashga chaqiruvchi insonparvqarlik, xalqparvarlik, moddiy olamdagi hayotni qadrlash g‘oyalarini targ‘ib qilishda ta’sirchan vosita bo‘lib xizmat qilgan.[2]

Islom olamida o‘ziga xos bir kuchli fikriy qo‘zg‘alish bo‘lgan “vahdat ul-vujud” (vujud birligi) ta’limoti aslida mashhur Shayxi Kabir Muhyiddin Ibn Arabiy (1165-1240) qarashlari asosida shakllangan bo‘lib, uning nomi bilan bog‘liqdir. Ibn Arabiy asli Ispaniyadagi amaldor arab oilasida tug‘ilgan. Ammo u butun umrini ilm-u ma’rifat rivojiga bag‘ishladi, ayniqsa uning ko‘p jildlik “Futuhoti Makkiya” (Makkaning kashfi) va “Fusus ul-hikam” (Hikmatlar gavhari) nomli asarlari unga shuhrat keltirdi. Buyuk Shayx umrining oxirini Makkada yashab o‘tkazdi, qabri esa Shomi sharifdadir. Vahdat ul-vujud nazariyasiga ko‘ra, olam Mutlaq Zoti mukarram – Haq taoloning o‘z husnu jamoli, qudrat va sifatlarini namoyon etish istagidan paydo bo‘lgan. YA’ni, Haq taolo o‘z-o‘zini tanish uchun Borliqni yaratdi. Borliq go‘yo ko‘zgu bo‘lib, Haq jamoli, ilm-u hikmati unda aks etadi, jilolanadi. Shundan ushbu ta’limotning muhim qismi bo‘lgan tajalliy g‘oyasi ham kelib chiqadi. Mutlaq Ruh – olamning joni, olamdagi barcha o‘zgarish, qonuniyatlar, ziddiyat va kelishuvlar, moddaning harakati, jismlarning o‘zaro aloqa-munosabati, muvozanat va nizomlar, tartib-qoidalar, o‘sish-ulg‘ayish va yemirilish – hamma-hammasida Haq taoloning ishtiroki, amri bor. Borliqning eng kichik zarrasidan koinotgacha jami ashyolar Mutlaq Ruh nazorati, boshqaruvi ostidadir. Shu asosda butun olam yagona Ruhi Mutlaqning ishtiroki bilan mavjud, borliq esa Ruhi Mutlaqqa bog‘liq holdagina mavjud. Demak, haqiqiy va abadiy vujud Uning O‘zi, moddiy olam esa –abadiy emas, u foniy yoki Mutlaq Ruhning xayoli, xolos.

Shunday qilib, vahdat – yagonalik, birlik Haq taologo xos, olam ham shu yagona Ruhi Mutlaq bilan birdir. Demak, "vahdat ul-vujud" deganda moddiylikdan, shaklu shamoyildan xoli, munazzah, ammo ana shu O‘zi xalq etgan olamlar bilan doimiy birga bo‘lgan, bu olamlar mohiyatini qamrab olgan, ularga muhit bo‘lgan Zoti pokning yagona vujudi anglashiladi.

“Vahdat ul-vujud” tushunchasining lug‘aviy ma’nosi borliqni birligi, tanholigi, yagonaligini anglatadi. Bu ta’limotni Ibn Arabiy ismi bilan bog‘lab tushuntiriladi. Ammo bu iborani Ulug‘ Shayxning o‘zi kitoblarida ishlatmagan. Shuning uchun “Vahdat ul-Vujud” atamasini kelib chiqishi to‘g‘risidagi masala ochiq holda qolmoqda. Tadqiqotchilar uni neoplatonchilarning tajalli g‘oyasi bilan bir xil tarzda deb tushuntiradi, gnostizim, xristian falsafasi sifatida ham talqin qiladi. “Vahdat ul-vujud”ning bevosita asosini so‘fiylarning metafizik va ilohiyotshunoslik ta’limotlari, shuningdek kalom va falsafa tashkil etadi.

"Vahdat ul-vujud" istilohi "borliqning birligi" ma’nosini anglatadi. Ammo uni "borliqning birlashuvi" yoki "barcha narsa va ashyolarning bitta vujud atrofida jipslashishi" ma’nosida emas, balki "borliq (vujud)ning yagonaligi" ma’nosida anglash lozim. Shundagina bu tushuncha G‘arb falsafasidagi panteizmni emas, Sharqdagi islom panteistik ta’limoti – vahdat ul-vujudning mazmun mohiyatni ifodalaydigan bo‘ladi. Vahdat ul-vujud g‘oyasining ibtidoiy ko‘rinishlari ilk oriflar – Boyazid Bistomiy va Mansur Halloj qarashalarida o‘z aksini topgan bo‘lsa-da, salkam to‘rt yuz yil o‘tgandan so‘ng mukammal va mustaqil nazariya (yoki ta’limot) sifatida tan olindi, Shayxi Akbar – Muhyiddin ibn al-Arabiyning bu sohadagi izlanishlari natijasida ilmiy-nazariy jihatdan asoslandi.[3]

Ibn Taymiya va Ibn Xaldunning Ibn Arabiy ta’limotiga tanqidiy qarashlari haqida to‘xtalib, olima Dilorom Salohiy ham o‘zining “ Tasavvuf va badiiy ijod” nomli kitobida shunday fikrlarni beradi: ”Ularning ta’kidlashlariga ko‘ra, Ibn Arabiy Mutlaqiyat, ya’ni Haq taolo va uning ijodi bo‘lmish koinotdagi tinimsiz dialektik o‘zgarishlar nuqtai nazarida fikr yuritadi. Orifning Haqqa yetishi, Haqning butun ismlari va sifatlari bilan koinotda ifodalanganligini his etishi-tinimsiz o‘zgarishda va ziddiyatda bo‘lgan jarayonni his etishidir. Ibn Arabiyga ko‘ra, koinot Mutlaqiyat

ismlari va sifatlari uyg‘unligini aks ettiruvchi vosita bo‘lib, uning mohiyatini anglashning mutloqo imkoni yo‘q. Mutlaqiyat yagona Borliq bo‘lib, moddiy dunyo yoki koinot esa uning hech bir qadri qimmati va ixtiyori bo‘lmagan sust bir jilosi, sharpasi (ash-shabah)dir. Shu bilan birga Mutlaqiyat O‘zining moddiylashgan ismlari (ya’ni mavjudot)da sifatlarini aks ettiradi va shu orqali O‘z kamolotini to‘la namayon etadi”,[4] deb yozadi.

Taniqli tasavvufshunos olim N.Komilovning fikricha, buyuk mutasavvif Farididdin Attor "Vahdat ul-vujud" g‘oyalarini kichik zamondoshi – Ibn al-Arabiy kitoblari hali Eron-u Xurosonda tarqalmasdan oldin o‘z asarlarida ifodalagan edi. Shu nuqtai nazardan, Farididdin Attorni "Vahdat ul-vujud"ta’limotining asoschilaridan deb hisoblash mumkin [3]. Bu fikrni ikkilanmasdan qo‘llab-quvvatlasa bo‘ladi. Zero, haqiqatdan ham "vahdat ul-vujud" ta’limoti, irfon falsafasi tarixida Ibn al-Arabiy nomi bilan bog‘liq bo‘lsa-da, uning g‘oyaviy sarchashmalarini Attor va hatto undan oldingi mutafakkirlarning qarashlaridan izlashga to‘g‘ri keladi. Ibn al-Arabiyning kichik zamondoshi bo‘lgan Jaloldiddin Rumiy ham bundan mustasno emas. Chunki Rumiy ham vahdat ul-vujud ta’limotini o‘ziga xos tarzda talqin etgan.

“Vahdat ul-vujud” ta’limotiga ko‘ra borliqni yaratilishining sababi qandaydir Olam ustida turadigan va o‘zi mustaqil bo‘lgan Mutloqning(xudo) harakati, astilizining mahsuli, boshqacha aytganda o‘zini-o‘zi anglash va o‘zini-o‘zi bilish, Mobiyat(al-axadiya), yaratilgan borliqni(al-xalq) birligi hisoblanadi. Bunday tahlil cheksiz, bepayon Mutlaq(ollox)likka intilish va mavhum tasavvurni uyg‘otadi, olamni birligi, “Ollohni namoyon bo‘lishi(tajjali)” tarzida talqin etiladi.

XULOSA

Yuqoridagilardan kelib chiqib Buyuk Shayx Ollohni mohiyatini to‘liq bilish mumkin emas, chunki ko‘plik olamiga talluqli, deb hisoblaydi. Yaratuvchi(Olloh) timsoli – uning ta’limotiga ko‘ra bizning tasavvurlarimizda paydo bo‘ladi: “Uni biz yaratamiz”, “U o‘zini biz uchun, bizning vositamizda tasvirlaydi”, -deb uqtiradi[5]. Tasavvuf ta’limoti ruhida fikr yuritib, Olloh hissiy va intellektual bilimlardan yuqoriroq turadigan mnetik tajalli, aqliy munavvarlik yordamida bilib olinadi “Yakka xudolik” to‘g‘risidagi “Vahdat ul-vujud” konsepsiyasiga suyanib, u barcha narsalar avvalambor, Ollohning aqlida ruh va g‘oya sifatida mavjud bo‘ladi, u yerda paydo bo‘ladi va unga qaytadi deb hisoblaydi. Olam o‘sha yagona borliqning tashqi tomoni, Olloh esa ichki tomoni. Xudo har qanday belgilardan, a’zolardan mutloq holi, u faqat butun borliqning asosidir. Ibn Arabiyning ta’limotida “Vahdat ul-vujud” asosiy o‘rinni egallaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ш.М.Мирзиёев ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН СТРАТЕГИЯСИ. – Тошкент: “O‘zbekiston” нашриёти, 2021, 310-бет
2. Раҳимов К. Мовароуннаҳр тасаввуфи тарихи: таълимотнинг шаклланиши ва тизимлаштирилиши (VIII-XI асрлар). – Тошкент, “Akademnashr”, 2020. – Б. 39-40.
3. Дилором Салоҳий. Тасаввуф ва бадиий ижод. Тошкент:”Наврўз”нашриёти. 2018. –Б. 74.
4. Нажмиддин Комилов. Тасаввуф. Иккинчи китоб: Тавҳид асрори. –Тошкент.: Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти; "Ўзбекистон". 1999. –Б. 53.
5. Суфизм в контексте мусулманской культуры. Москва.: Прогресс. 1989. –С.30.